



YIRINGLI-SEPTIK KASALLIKLARNI YUZAGA KELISHIDA MIKROORGANIZMLARNING AHAMIYATI VA SEPSIS CHAQIRUVCHI STAFILOKOKKLARNING MAHALLIY SHTAMMLARINI MAVSUMIY TARQALISHINI O'RGANISH

Rashidov Shamsiddin Sharofovich

Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali davolash ishi fakulteti 2-bosqich talabasi, shamsrma080@gmail.com
<https://doi.org/10.5281/zenodo.6035038>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 15-dekabr 2021
Ma'qullandi: 15-yanvar 2022
Chop etildi: 5-fevral 2022

KALIT SO'ZLAR

sepsis, yiringli yallig'lanish, stafilokokk, shtamm, antibiotik, otorinologik, grammanfiy.

ANNOTATSIYA

So'nggi yillarda yer yuzida, jumladan Respublikamizda ham organizmning holatiga manfiy ta'sir ko'rsatuvchi stafilokokklar keltirib chiqaruvchi yiringli-yallig'lanish kasalliklariga to'g'ri tashxis qo'yish, ratsional tarzda davolash va profilaktika ishlarini olib borish, dolzarb muammolardan biri bo'lmoqda. Yuqumli yiringli-yallig'lanish kasalliklari bilan aholini barcha qismi kasallandi. Bu infeksiyon jarayonlarni asoratlaridan sepsisni yuzaga kelishida stafilokokklarning ahamiyati katta bo'lmoqda. Ayniqsa, otorinologik organlarda yuzaga keladigan patalogik jarayonlarda grammusbat kokklarni tarqalishi alohida e'tiborga loyiq va bu yo'nalishda ilmiy tadqiqotlar mavjud. Lekin mintaqada bo'yicha stafilokokklarni turli biotoplarda va mavsumiy tarqalishi hamda ba'zi antibiotiklarga nisbatan rezisteptligi to'la o'rganilmagan.

Mavzuning dolzarbligi: Hozirgi kunda yer yuzida, jumladan Respublikamizda ham turli organlarda yuzaga keladigan yuqumli yiringli-yallig'lanish jarayonlarining kamayishi qayd etilmayapti. Ushbu holat aholini yiringli-yallig'lanish kasallik qo'zg'atuvchilari bilan zararlanish darajasining yuqoriligicha qolayotganini tasdiqlaydi. Bu infeksiyon jarayonlarni asoratlaridan biri, sepsisni yuzaga kelishida stafilokokklarni ahamiyati katta bo'lmoqda. Yuqumli yiringli-yallig'lanish jarayonlarida tekshiruvchi materiallardan ajratib olingan mikroorganizmlar manzarasini, ushbu biotopdagi normal mikroflora bilan solishtirib o'rganib, patalogik jarayondagi yuzaga kelgan o'zgarishlarni tahlil qilib, davolashni samarali va kasallikni profilaktikasidagi chora-tadbirlarga

yangicha yondoshish, hozirgi kunning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.


Tadqiqotlardan maqsad: Yiringli-yallig'lanish kasalliklarida ajratilgan mikroorganizmlar peysajini tahlil qilib, ushbu jarayonlardagi asosiy etiologik mikroblarni kultural-biologik xususiyatlarini, sepsis chaqiruvchi stafilokokklarning tarqalishini o'rganish.

Material va tekshiruv usullari: Yuqumli yiringli-yallig'lanish kasalliklari bilan aholini barcha qismi kasallanadi. Odam organizmining o'ziga xos anatomo-fiziologik tuzilish va xususiyatlaridan kelib chiqib, jami yiringli-yallig'lanish kasalliklarining asosini otorinologik organlarda yuzaga keladigan patalogik jarayonlar tashkil qiladi. So'nggi yillarda yiringli-yallig'lanish kasalliklarini



kamayishi kuzatilgani yo'q. Ushbu holatdagi kasallanish asosan organizmni immunit qarshiligi sustlashgan va noqulay xududda yashovchi aholi uchun xosdir. Odamlardagi yiringli-yalig'lanish kasalliklarining rivojlanishida asosiy etiologik faktor shartli-patogen kokksimon mikroorganizmlardir. Ushbu mikroorganizmlar bu infeksiyon jarayonni 20-30% holat keltirib chiqarishi ilmiy izlanishlarda ta'kidlangan. So'nggi 20 yil mobaynida yer yuzida, jumladan Respublikamizning yiringli-yalig'lanish kasalliklarini antibiotiklarga polirezistent grammusbat kokksimon mikroorganizmarning chaqirishi oshib bormoqda. Bemorlardan ajratilgan mikroorganizmlarni tomoq, burun, quloq biotoplarda uchrashini tahlil qilganimizda, grammusbat kokklarni eng ko'pi nafas yo'llari shilliq qavatida uchrashi aniqlandi. Yiringli-yalig'lanish kasalliklariga 2020-2021 yillar davomida tashxislangan jami 127 ta bemorni 100 ta (78,7%) sida tomoq, burun, quloq biotoplarda jarayon rivojlanganligi sababli, ushbu bemorlarni tekshiruv materiallaridan ajratilgan

mikroblar peysajini tahlil qildik. Surxondaryo viloyati ko'p tarmoqli shifoxonasi laborator tashxislash maqsadida, bemorlardan klinik shikoyatlariga ko'ra, 57 tasi yuqori nafas yo'llarini shilliq qavatidan, 24 tasi burun bo'shliqlaridan, 19 tasi tashqi quloq bo'shlig'idan surtmalar olinib, bakteriologik usulda etiologik faktorlari ajratib olindi. Olib borilgan izlanish natijalariga ko'ra, yiringli-yalig'lanish jarayonni keltirib chiqaruvchi bakteriyalarning asosini grammusbat kokklar (stafilokokk) 45 ta shtamm (45%) ni, tashkil qildi. Grammanfiy bakteriyalar 21 ta shtamm (21%), identifikatsiya qilinmagan grammusbat tayoqchalar (3 shtamm-3,0%), Ps.aeruginosa (8 shtamm-8,0%), achitqisimon zamburug'lar 23 ta shtammni (23%) ni tashkil qildi. Yiringli-yalig'lanish kasalliklarida uchrovchi stafilokokklarning mavsumiy tarqalishini kuzatish maqsadida biz yil davomida murojaat qilgan kasallardan ajratib olingan stafilokokklarni tahlil qildik. Olingan natijalar quyidagi diagrammada keltirilgan.



Rasmdan ko'rinib turibdiki, stafilokokklar eng ko'p uchraydigan fasli bahor bo'lib, u 40% ni tashkil qildi. Kuz mavsumida ham yiringli-yalig'lanish kasalliklarda

moslashishi bilan birga, ular orasida mintaqaviy farqlar bo'lishi mumkin. Shuning uchun bakteriologik usuldagi ajratilgan maxsus standartlar bilan solishtirgan holda o'rganish lozim.





Olingan izlanish natijalariga ko'ra demak, tomoq, burun, quloq biotoplarda yiringli-yallig'lanish jarayonlarida mikroorganizmlarni peysajini o'ziga xosligi, ya'ni bakteriyalarni xilma-xilligi va bu organlarda bakteriyalarni miqdori ko'p bo'lishiga bog'liq ekan. Bu biotoplarda ushbu jarayonlarni keltirib chiqarishda grammusbat kokklar, achitqisimon zamburug'lar, grammanfiy bakteriyalar asosiy etiologik agentlar bo'lar ekan.

Xulosa: 1. Burun, quloq, tomoq, sohasidagi yiringli-yallig'lanish infeksiyalarida ajratilgan mikroorganizmlarni asosini ya'ni 44,7% ini grammusbat kokklar tashkil qilib, ularni biologik xususiyatlariga ko'ra:

koagulazomanfiy stafilokokklar (*Staphylococcus* sp.), koagulazomusbat stafilokokklar (*St.aureus*) va nopatogen mikrokokklar, streptokokklar va diplokokklarga ajratildi. Qolganlari grammanfiy tayoqchalar va *Candida* lar bo'ladi.

2. Yiringli-yallig'lanish kasalliklarini tomoq biotopida yetakchi qo'zg'atuvchilar grammusbat kokklardan iborat.

3. Yiringli-yallig'lanish kasalliklarini asosiy chaqiruvchi bo'lgan stafilokokklar mavsumiy tarqalishi 2120-2021 yil fasllari bo'yicha tahlil qilinganda stafilokokklar eng ko'p tarqalgan fasli bahor va kuz bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бухарин О.В., Дерябин Д.Г. Экологическая детерминированность маркеров персистенции стафилококков. //Журн. микробиологии, эпидемиологии и иммунобиологии. М.:– 1997. – №. 4. – С.60-63.
2. Muhamedov I.M va boshqalar *Mikrobiologiya, virusologiya va immunologiya*. Darslik, Toshkent 2006 y.
3. Muhamedov I.M va boshqalar. *Mikrobiologiya, virusologiya va immunologiya*. Darslik. Toshkent. 2019 y.
4. Muhamedov I.M va boshqalar. *Ma'ruza matnlari (o'zbek va rus tilida) (56 ma'ruza) 2007 yil*.
5. Korotyaev V.I i dr. *Medsitsinskaya mikrobiologiya*. Uchebnik. Sankt Peterburg, 2002 (Elektronnaya versiya).
6. Герасименко Д.Д., Павлова В.А., Данилейко Л.В., Маркелова А.М. Чувствительность к антибиотикам и фагам стафилококков, выделенных при ЛОР- заболеваниях //Микробиологический журнал;. - 1981. - Т.43, №6. – С.786-790.
7. Ершов Ф.И., Гаращенко Т.И. Актуальные вопросы оториноларингологии детского возраста и фармакотерапия болезней ЛОР-органов. //Юбилейный сборник научных трудов. Москва, 2001;- С.48-50.
8. Шайхова Х.Э., Бектемиров А.М-Т. Ўрта қулоқнинг сурункали йирингли отитларида микрофлора табиатига боғлиқ ҳолда рационал даволаш усулини танлаш //Медицинский журнал Узбекистана. Т. 1998. №5. – С.26-28.
9. Райко И.Е. Исследование гидролитических ферментов в экссудате из среднего уха у больных острым и хроническим средним отитом //Журн. ушных, носовых и горловых болезней. М.: 1990. №5. – С.4-7.
10. Саркисов Д.С. Некоторые особенности взаимоотношений макро-микроорганизмов с общепатологических позиций //Проблемы туберкулеза. Т.: 2000. № 5. – С.3-6.

